

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-3

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA
MODELLASHTIRISHDAN FOYDALANISH – O'QUVCHILARNING
KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI
ZAMONAVIY YONDASHUV

Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li,
TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida modellashtirish metodidan foydalanishning o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Unda modellashtirish o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuv sifatida talqin qilinadi hamda bu uslubning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada modellashtirish orqali o'quvchilarning til materiallarini chuqurroq o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, modellashtirish, kreativ tafakkur, innovatsion yondashuv, didaktik usullar, o'quv jarayoni, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Zamonaviy ilm-fan rivojida modellashtirish tushunchasiga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, ta'lim jarayonida modellashtirish tizimi keng qo'llanilmoqda. Shu jihatdan mazkur tushunchani kengroq ma'noda izohlashni lozim topdik. Modellashtirish - zamonaviy talqinda ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi.

«Model», «modellashtirish» degan tushunchalar faqat murakkab fizik va tabiiy jarayonlarni tadqiq etish bilan bog'liq bo'lib, juda tor doiradagi mutaxassislar tomonidan hodisalar yoki murakkab texnik obyektlarni yaratish jarayoni o'rganilgan. Zamonlar o'tib kompyuter axborot texnologiyalari modellashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi va bugungi kunda modellarni qurish va ulardan foydalanishning metodologiyasi va zamonaviy vositalaridan foydalanmasdan ilmiy-tadqiqot va jiddiy loyiha faoliyatini tasavvur qilish qiyin. Ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yilliklarda modellashtirish o'z obyektlari, qonuniyatlari, yondashuvlari va tadqiqot usullari bilan mustaqil fanlararo bilim sohasiga aylandi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Modellashtirish - hodisa va jarayonlarni model yordamida tadqiq qilish; ob'ektlar (jonli va jonsiz tizimlar, muhandislik konstruktsiyalari, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy jarayonlar xamda loyihalanadigan ob'ektlar)ning modellarini yasash"¹ - deb izohlanadi. Modellashtirish, ayniqsa mavhum obyektlarni, olis-olislarda joylashgan obyektlarni, juda kichik hajmli obyektlarni o'rganishda ahamiyati kattadir. Modellashtirish inson faoliyatining turli-tuman sohalariga tobora kengroq va chuqurroq kirib bormoqda, tadqiqotning samarali vositalaridan foydalanishga imkon bermoqda.

I.T.Frolova modellashtirish tushunchasiga "Muayyan obyektning xususiyatlarini ularni o'rganish uchun maxsus yaratilgan boshqa obyektga takrorlash" - deb ifodalaydi². Mazkur uslub ilmiy-tadqiqot jarayonini osonlashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarini o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Modellashtirish uslubidan zamonaviy fanlardan fizika, astronomiya, biologiya, iqtisod kabilarda keng qo'llanilgan. Xususan, o'qitish jarayonini modellashtirish asosida tashkil etish yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Shu bois biz ham ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish uslubidan keng foydalandik. Izlanishlarimiz modellashtirish vositasida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini tadqiq etishga undadi.

Dunyo ilm-fanida pedagogik modellashtirishga oid ilmiy-nazariy g'oyalar va metodologik yondashuvlar bisyor. Jumladan, mazkur tushuncha N.A.Kozyrev va O.A.Kozyrevalar tomonidan ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, bunda o'qituvchi va o'quvchini ajratilgan fan yoki ilmiy bilim sohasi resurslarida didaktik va ilmiy-tadqiqot materiallarini o'rganish hamda tadqiq etishning zarur sifatini ta'minlaydigan, shakllangan bilim va kompetensiyalarni zamonaviy uzluksiz ta'lim modelida bilish va to'ldirish imkoniyatini batafsil ta'minlaydigan determinatsiya, vizualizatsiya, verifikatsiya, modifikatsiya qilish, yangi maqbul pedagogik vositani yaratish resursi tushuniladi³. Demak, modellashtirish pedagogik faoliyatda zamonaviy yangi, sifatli bilim yoki vositaning paydo bo'lishi imkoniyatini belgilovchi ilmiy-pedagogik tadqiqot usulihamdir.

¹ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ. 2003 йил. М-harfi. 671-bet. www.ziyouz.com кутубхонаси.

² Философский словарь / под ред. И.Т. Фролова. – М.: Республика, 2009. – 848 с.

³ Козырев Н.А., Козырева О.А. Педагогическое моделирование как продукт и метод научнопедагогического исследования // Современная педагогика. 2015. № 8.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-3

N.A.Kozyrev va O.A. Kozyrevalar «Pedagogik modellashtirish» tushunchasidan foydalanishning uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi.

Keng ma'noda pedagogik modellashtirish - zamonaviy ta'lim va pedagogik faoliyat imkoniyatlari (har xil innovatsion resurslar, vositalar, usullar va boshqa obyektlar) ni aniqlovchi va maqbullashtiruvchi ta'lim-tarbiya makonining resursi.

Tor ma'noda pedagogik modellashtirish - pedagogik jihatdan talab yuqori bo'lgan turli modellar va vositalarni yaratishning maqbul shart-sharoitlari va imkoniyatlarini izlashga qaratilgan pedagogik faoliyat turi.

Mahalliy ma'noda pedagogik modellashtirish - zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotini ko'p madaniyatli ta'lim modelida shaxsni rivojlantirish va o'zini o'zi rivojlantirishning barqaror amalga oshiriladigan shart-sharoitlari va ustuvorliklari bilan ta'minlaydigan tushunchani keng ma'noda aniqlashtirish, yangi modellar va pedagogik vositalarni yaratish tushuniladi⁴.

Modellashtirish — ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi. Shu jumladan tarixchilar ham bu uslubdan tadqiqotlar jarayonidan keng foydalanadilar. Tarixiy hodisalarni modellashtirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. Modellashtirish soddalashtirish, ideallashtirish va abstraktlashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. U manbalardagi ma'lumotlarning reprezentativligini tekshirishda, dalillarning ishochliligini, farazlar va nazariyalarning haqiqiylikini tekshirish imkonini beradi. Masalan, jamoaning holatini o'rganish uchun uni modellashtiradigan bo'lsak, bunda sotsiologiya, huquq, psixologiya hamda jamoaning o'ziga xosligi omillarini ham e'tiborga olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida fanlararo yondashuv uslubining qo'llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to'g'ridan-to'g'ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanining tuzilishi mohiyati nuqtai-nazaridan shakllantirish lozim.[1]⁵

E.A.Seytxalilov xulosalariga ko'ra, "Modellashtirish mavhumlashtirish va ideallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular yordamida modellashtiriladigan ob'ektning modelda aks etadigan tomonlari ajratiladi". Demak,

⁴ Козырев Н.А., Козырева О.А. Педагогическое моделирование как продукт и метод научнопедагогического исследования // Современная педагогика. 2015. № 8.

⁵ Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. Tarix fanining nazariy asoslari (O'zbek), 2020 — 111-bet. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Modellashtirish>.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-3**

modellashtirish yordamida o'rganiladigan jarayonni yaqqol namoyish etish imkoni vujudga keladi va u to'g'risida bilimlarni tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, yaxlit tasniflashlarni ishlab chiqish, komponentlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik hamda aloqalarni detallashtirish jarayoni tushuniladi. [123; 114-b.]⁶.

Ilmiy tadqiqot usullaridan biri bo'lgan modellashtirish pedagogikada keng qo'llaniladi. Modellashtirish usuli integrativ bo'lib, u pedagogik tadqiqotda empirik va nazariy usullarni birlashtirishga, ya'ni pedagogik obyektni o'rganish jarayonida mantiqiy konstruksiyalar va ilmiy mavhumliklarni yaratish bilan tajribani birlashtirishga imkon beradi.

Pedagogik ilm-fanda modellashtirish usuli V.G. Afanasyev, V.A. Venikov, B.A. Glinskiy, I.B. Novik, V.A. Shtoff kabi pedagog olimlar ishlarida batafsil tahlillar ko'zga tashlanadi. Jumladan G.V.Suxodol'skiy⁷ "modellashtirish" atamasiga birmuncha kengroq ta'rif bergan: "Modellashtirish modellar ierarxiyasini tuzish jaraeni bo'lib, unda real mavjud bo'lgan tizim turli aspektlarda va turli vositalar asosida modellashtiriladi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Ўzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti TOShKENT. 2003 yil. M-harfi. 671-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Filosofskiy slovar' / pod red. I.T. Frolova. – M.: Respublika, 2009. – 848 s.
3. КОЗЫРЕВ N.A., КОЗЫРЕВА O.A. Pedagogicheskoe modelirovanie kak produkt i metod nauchnopedagogicheskogo issledovaniya // Sovremennaya pedagogika. 2015. № 8.
4. Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. Tarix fanining nazariy asoslari (O'zbek), 2020 — 111-bet. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Modellashtirish>.
5. Seytxalilov E.A., Tojiev M. Pedagogicheskaya texnologiya: opyt prakticheskogo primeneniya i sistemno-soderzhatel'nogo analiza. Uchebnoe posobie . Izd.-vo «Tafakkur- bostoni». T.: 2012.- 256 s.
6. Suxodol'skiy G.V. Strukturno-algoritmicheskii analiz i sintez deyatel'nosti. – L.: LGU, 1976. – S.12.

⁶ Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа. Учебное пособие . Изд.-во «Tafakkur- bostoni». T.: 2012.- 256 s.

⁷ Суходольский Г.В. Структурно-алгоритмический анализ и синтез деятельности. – Л.: ЛГУ, 1976. – С.12.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-3**

7. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
8. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.
9. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56.
10. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.
11. Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.
12. Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.